

## EY UNDOVI MUROJAAT OBYEKTI SIFATIDA

**Mardon Mehmonovich RAHMATOV**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

## МЕЖДОМЕТИЕ ЭЙ КАК ОБЪЕКТ ОБРАЩЕНИЯ

**Мардон Мехмонович РАХМАТОВ**

Кандидат филологических наук, доцент

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

им. Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

## INTERJECTION HEY AS AN OBJECT OF ADDRESS

**Mardon Mehmonovich RAHMATOV**

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Tashkent, Uzbekistan [mardonrahmat@gmail.com](mailto:mardonrahmat@gmail.com)

UDC (УЎК, УДК): 81`367.628: 821.512.133

**For citation (iqtibos keltirish uchun,  
для цитирования):**

Rahmatov M. M. “Ey” undovi murojaat obyekt  
sifatida // O‘zbekistonda xorijiy tillar 2022. —  
No. 4 (45). — B. 7-19.

<https://doi.org/10.36078/1664528166>

**Received:** March 20, 2022

**Accepted:** August 17, 2022

**Published:** August 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative  
Commons Attribution International License  
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Annotatsiya.** Klassik she’riy asarlarda jumla muammosi, uning serqirra va murakkab tabiatini o‘rganish dolzarbligicha qolmoqda. She’riy tizimga olib kirilgan tilning sintaktik birliklari nafaqat she’riy misra bo‘ylab qayta tiziladi, balki ular turli darajada semantik o‘zgarishlarga ham uchraydi va favqulodda murakkab tusga ega bo‘lgan she’riy qurilmalar yuzaga keladi. Bunday poetik moslanuvchan qurilmalar poetik axborot tiliga aylanadi va kommunikatsiyaga xizmat qiladi. Shunday poetik hodisalar Alisher Navoiy g‘azallarida ham kuzatiladi. Ushbu maqola Alisher Navoiy lirikasida qo‘llangan va o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lgan “ey” undovining tahliliga bag‘ishlangan. Unda “ey” undovining nutq sub’yekti va adresat — g‘azalxon o‘rtasidagi nutqiy muloqotni ta’minlashdagi o‘rni va uning poetik vazifasi tahlil qilingan. Tahlil uchun “ey” undovining turdosh yoki atoqli otlar, otlashgan so‘zlar bilan qo‘llanmagan turlari tanlab olindi. Bunday murojaat shakllarida murojaat obyektini aniq bo‘lmaydi, ammo uning ma’nosini bayt/misra tarkibidagi sintaktik shakllari mazmunidan anglash mumkinligi, ular ham nutqning og‘zaki dialogik shaklidagi kabi dialogizatsiyaga xizmat qilishi haqidagi xulosalar berildi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy; undov so‘z; she’riy nutq; dialogizatsiya; adresat; murojaat shakli; sintaktik birlik; semantika; yuklama.

**Аннотация.** Изучение проблемы высказывания в классических поэтических произведениях ввиду их сложного характера остается актуальным. Синтаксические единицы языка, импортированные в поэтическую систему, претерпевают изменения не только по ходу поэтического произведения, но и зависят от семантических изменений и проявлений, которые складываются комплексно. Такие поэтические образные средства становятся поэтически информативными и служат коммуникации. Такие поэтические тонкости наблюдаются и в

газелях Алишера Навои. Данная статья посвящена анализу междометия *эй* в поэзии Алишера Навои. В ней *эй* проанализировано с точки зрения субъекта речи и адресата — роль междометия в речи читателя газели и его поэтической функцией. Для анализа была выбрана языковая единица *эй* по сходству имен собственных и нарицательных. В этом случае объект обращения не понятен, но его значение определялось из контекста — диалога как синтаксического целого смысла стихов.

**Ключевые слова:** Алишер Навои; междометие; поэтическая речь; коммуникант; диалогизация; форма обращения; синтаксическая единица; семантика; нагрузка.

**Abstract.** The study of the problem of utterance in classical poetic works and their complex nature remains relevant. The syntactic units of the language expressed in the poetry are semantically changed, forming the complex system. Such poetical figurative devices get informative and communicative functions in the Gazals of Alisher Navoi. The article is devoted to an analysis of “hey” interjection in Alisher Navoi poetry. In particular, the role and poetic function of “hey” in ensuring the speech communication between the subject of speech and the addressee. The interjection “hey”, which is not used with cognate or possessive nouns and compound words was selected. The study claims that in such forms, the object of reference is unclear, but its meaning can be understood from the content of syntactic forms in verse.

**Keywords:** Alisher Navoi; interjections; poetic speech; communicant; dialogization; appeal form; syntactic unit; semantics; loading.

**Kirish.** O‘zbek tilida undovlar ma’nosiga ko‘ra his-hayajon, buyruq-xitob, haydash-chaqirish kabi turlarga ajratib o‘rganiladi. Undovlar o‘zgarma so‘zlar va ular grammatik ma’no hosil qiluvchi maxsus qo‘shimchalarga ega emas. Ayni shu xususiyati bilan mustaqil so‘z turkumlaridan farq qiladi.

Undovlar o‘zbek tili tarixining barcha davrlarida qo‘llangan va ular, odatda, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlarni ta’minlashga xizmat qilgan. Undovlar asosan tinglovchining diqqatini tortish, u bilan munosabat o‘rnatish, fikrni unga qaratish, shuning bilan birga, kuchli his-hayajonni ta’minlash, ba’zan hayratlanish kabi ma’nolarni ifodalash uchun qo‘llangan.

XIII–XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklari tilida *ey* (*ay*), *yā*, *ayā* undovlari faol qo‘llangan bo‘lib, so‘zlovchining tinglovchiga murojaati, xitob qilish, uning e’tiborini tortish, e’tiborni aytilayotgan fikrga jalb qilish, his-hayajon, ruhiy holat, taajublanish, afsuslanish, iltijo qilish kabi ma’nolarni ifodalagan (9, 261) bo‘lsa, keyingi davrlarda, jumladan, Alisher Navoiy asarlarida otlar bilan birga qo‘llanib so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi nutqiy muloqotni ta’minlashga xizmat qilgan. Ammo ularning Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanishi bir xil emas. Masalan, uning lirik asarlarida *yā* undov so‘zi nafaol (*Yo rab, ul shahdu shakar yolabmudur!?*). *Ey* undovi esa faol va u ham nasriy, ham lirik asarlarda qo‘llanilgan, uning *ayā* shakli esa shoir asarlarida umuman uchramaydi.

**Asosiy qism.** Alisher Navoiyning lirik asarlarida *ey* undovi ishtirokida hosil qilingan murojaat obyektini ifodalanishiga ko‘ra ikki turga ajratish o‘rinli. *Ey* undov so‘zi aksariyat hollarda turdosh va atoqli otlar, otlashgan so‘zlar bilan birga qo‘llanganda murojaat obyektini ochiq-oshkor ko‘rinib turadi. Ammo ba‘zan *ey* undov so‘zi bilan turdosh va atoqli otlar, otlashgan so‘zlar qo‘llanmaganda murojaat obyektini *ey* undovi zamiriga “yashirinadi” yoki uning ma‘nosini bayt/misra tarkibidagi sintaktik shakllar mazmunidan anglash mumkin. Ushbu tadqiqot-maqolada murojaat obyektining aniq ifodalanmagan turini so‘zlovchi va tinglovchi pozitsiyasidan kelib chiqib izohlash maqsad qilib olingan. Chunki bu tur undov so‘z yordamida hosil qilingan murojaat ma‘nosini to‘g‘ri tushunish bayt/misra, qolaversa, g‘azal mazmunini to‘g‘ri anglashda nihoyatda muhimdir.

Har doim nutq egasi, ya‘ni so‘zlovchi uchun *ey* undov so‘zi yordamida nomlanayotgan murojaat obyektlari ma‘lum bo‘ladi. Shu ma‘noda, shoirning lirik qahmamoni uchun ham bayt/misra tarkibidagi *ey* undovi orqali ifodalangan murojaat ma‘nosi ham har doim aniq. Shoir fikrini kimga yoki nimaga qaratganini, murojaat obyektini mazmunida nima nazarda tutilganligini aniq biladi. Demak, shoirning she‘rda o‘z pozitsiyasi mavjud, uning niyati, maqsadi she‘riy misraning har bir so‘zida, jumladan, undov so‘zida ham aks etadi.

Tinglovchi uchun shoir pozitsiyasi — murojaat shakli orqali kimni yoki nimani nazarda tutgani ba‘zan aniq, ba‘zan noaniq — tushunarsiz bo‘lishi mumkin, lekin hech qachon “mavhum” emas. Chunki shoir har doim poetik axborotning tushunarli bo‘lishini nazarda tutadi. *Ey* undovi bilan shakllangan murojaat shakli ma‘nosini to‘g‘ri anglash she‘rxon zimmasiga yuklanar ekan, buning uchun undan maxsus tayyorgarlik, maxsus bilim va badiiy tafakkur tiniqligi talab etiladi. Murojaat shakli ochiq, tushunarli bo‘lsa, she‘rxon uchun uning mutolaasi va anglamida muammo deyarli kuzatilmaydi.

Murojaat shakli xoh ochiq, xoh yashirin qo‘llangan bo‘lsin, undan ko‘zlangan asosiy maqsad murojaat obyektiga ishora qilishdan iboratdir. U shoir murojaat yo‘llagan adresat o‘rtasida kommunikativ munosabatni o‘rnatishga xizmat qiladi. Shu ma‘noda, she‘riy nutqda *ey* murojaat shakli har doim dialogizatsiya vazifasini bajaradi. Dialogizatsiya dialogiya (og‘zaki dialogik nutq nazarda tutilyapti) bilan chambarchas bog‘liq va u dialogik nutq jarayonida namoyon bo‘ladi. Dialogik nutqda dialogik elementlar qancha ko‘p va ochiq qo‘llansa, kommunikatsiya jarayoni shuncha samarali bo‘ladi.

Rus olimi I.I.Kovtunova she‘riy nutq birliklarining og‘zaki dialogik nutqqa xos dialogizatsiya belgilarini o‘zida qay darajada saqlashiga ko‘ra “kuchli” va “kuchsiz” turlarga ajratadi. Bu adresatdan murojaatchiga mos ravishda muayyan javob reaksiyasining talab qilinishi yoki talab qilinmasligida namoyon bo‘ladi (7, 61). Dialogizatsiyaning “kuchli” turiga ikkinchi shaxs buyruq, so‘roq gaplar (so‘zlari) kiritilgan bo‘lsa, “kuchsiz” turiga esa

*sen* olmoshi, murojaat soʻzlari (undalmalar) kiritiladi. “Kuchsiz” turda soʻzlovchining ikkinchi shaxsga qaratilgan axboroti faqat suhbatdosh tomonidan eʼtiborga olinishi va uni (soʻzlovchini) tushunishi nazarda tutiladi. Undan javob reaksiyasi kutilmaydi. Boshqacha aytganda, *ey* undov murojaati, umuman olganda, barcha murojaat shakllari kabi poetik nutqda kommunikativ vazifani bajaradi, ammo u koʻproq tavsifiy vazifa bajargani uchun diqqatni tortishi (vokativ), tinglovchini bir faoliyatga undash (appelyativ) vazifasi susayishi, baʼzan mutlaqo yoʻqolishi ham mumkin.

Alisher Navoiy lirik asarlaridagi “*ey*” murojaat shaklini (undalmasini) ayni shu xususiyatiga koʻra tasniflaganda dialogizatsiyaning “kuchsiz” turiga kiritish oʻrinli. Yaʼni uning — ichki adresatning jismoniy faollashishi, diqqatni jalb qilishi nazarda tutilmaydi (buning iloji ham yoʻq). Chunki shoir murojaat soʻzlariga badiiy obraz va badiiy tasvir yaratish vositasi sifatida qaraydi. Masalan:

*Ey mugʻanniylar, Navoiy mast edi — kech uygʻonur,  
Ani uygʻotmoqqa bir dilkash tarannum aylangiz* (BV 217).

Baytda lirik qahramon mugʻanniylarga murojaat qilib ishq sharobidan mast boʻlib uxlab qolgan Navoiyni uygʻotish uchun dilni oʻrtaydigan bir navo tarannum qilishni va uni uygʻotishni soʻramoqda. Mazkur baytda murojaat shakli — *ey mugʻanniylar* — murojaat obyektini sifatida qoʻllangan. *Mugʻanniylar — sizlar tarannum aylang//Mugʻanniy — sen tarannum aylagin*. Mazkur baytda *ey* undov soʻzidan soʻng murojaat obyektini ikkinchi shaxs — suhbatdosh aniq ifodalangan.

Taʼkidlanganidek, ogʻzaki nutqdagi kabi yozma manbalarda ham *ey* undovi turdosh va atoqli otlar, otlashgan soʻzlar bilan qoʻllanmagan boʻlsa, murojaat obyektini (shoir pozitsiyasidan) aniq, lekin adresat uchun adresant — soʻzlovchining pozitsiyasi maʼlum maʼnoda (bugungi oʻquvchi uchun) “mavhumlik” kasb etadi. Ammo bu “mavhumlik” mutlaq emas. Ushbu oʻrinda *ey* undov soʻzining murojaatni yashirin ifodalanishi bilan bogʻliq mulohazalarimizni bayon qilishni maqsad qildik.

Tilshunosligimizda his-hayajon undovlari haqida fikr yuritilganda, ularning matn tarkibida yolgʻiz oʻzi, mustaqil va nomustaqil qoʻllana olishi, matn tarkibida baʼzan gapga xos belgilarga ega boʻlishi haqida fikr bildiriladi. Jumladan, oʻzbek tilshunosligida *ey* undov soʻzining baʼzan mustaqil qoʻllanib, gapga teng kelishi, gapga xos belgilarga ega boʻlishi, mustaqil va nomustaqil qoʻllana olishi haqidagi qarashlar mavjud (1, 95). Alisher Navoiyning gʻazallarida *ey* undovining mustaqil (atoqli yoki turdosh otlarsiz) qoʻllanganligiga tez-tez duch kelamiz. Mazkur undov soʻz yolgʻiz qoʻllanganda uning murojaat maʼnosi — nutqning kimga yoki nimaga qaratilgani, yaʼni murojaat obyektini maʼnosi yashirin ifodalanganligiga qaramay, unda muallif pozitsiyasi aniq va qatʼiy boʻladi. *Ey* soʻzining murojaat maʼnosini anglash uchun bizga bayt/misra tarkibidagi

sintaktik birliklar ma'nosi, jumlaning sintaktik qurilishi yordamga keladi. Shuningdek, tadqiqotchi yoki g'azalxonning poetik idroki, bilimi, topqirligi ham muhim.

Alisher Navoiyning lirik asarlarida *ey* undov so'zidan keyin atov birligi qo'llanmagan hollarda yolg'iz o'zi yoki *-ki/kim* yuklamasi bilan (*ey*, *eyki/eykim*) birga qo'llanadi va, odatda, she'riy nutq mazmunan tinglovchiga — ikkinchi shaxsga qaratiladi. Ikkinchi shaxsga qaratilgan nutqda *-ey* ...undov-undalma dialogizatsiyani, so'zlovchi-tinglovchi munosabatlarini yuzaga chiqaradi.

1. Lirik qahramonning nutqi ikkinchi shaxsga qaratiladi:

*Ishq aro, eykim, deding, har lahza faryod etma, voy,  
O't tutashqan chog' bo'lurmu kimsa faryod etmasa?!*  
(G'S 568)

Ya'ni: "ey" — bu "sen", ya'ni ichki adresat. Nutq ikkinchi shaxsga qaratiladi: *Ishq aro, ey yor, sen har lahza faryod etma, deding, lekin o'tda yonayotgan vaqtda kishi faryod qilmasa qanday bo'ladi?!* Mazkur bayt tarkibidagi luqma (replika — o'zganing gapi) tarkibida *ey* undovi — *yor* ma'nosida qo'llangan. Ammo Alisher Navoiy lirikasida *ey* murojaat shaklining ma'nosini (nutqning kimga yoki nimaga qaratilganini) jumla predikati va boshqa sintaktik birliklar mazmunida shaxs yoki narsa ma'nosi aniq ifodalanmaganda, poetik ifodalar mazmunidan *yor* va *pir* poetik obrazlarini idrok qilish mumkin bo'ladi. Masalan: *yor<pir* yoki *pir<yor* kabi.

2. Lirik qahramon o'z nutqini ikkinchi shaxs (tinglovchi)ga qarata bayon qiladi va *ey* murojaat so'zini murojaat birligi sifatida qo'llaydi. Bunda murojaat shakli ikkinchi shaxsga bevosita emas, balki bilvosita qaratiladi. Bunday murojaat shakllaridan so'ng sen omoshining bosh kelishikdan tashqari turli kelishiklar bilan kelishi kuzatiladi. Nutqning bu bayon usuli shoirning o'zi haqida, ayni vaqtdagi holati, ruhiy kechinmalari haqida so'z aytishga imkon yaratadi: shoir arzi hol qiladi yoki murojaat obyektining sifatlarini tilga oladi yoxud uning tavsifini keltiradi (jumla tavsifiy xarakterga ega bo'ladi). Bu tur murojaat shakllarida dialogizatsiya ma'lum darajada zaiflashadi:

*Ey, jamolingning xayoli xotiri vayronda naqsh,  
Shamsadin qolg'an asar yanglig' buzug' ayvonda naqsh*  
(BV 257).

Ya'ni: "ey" — bu tavsif-tasvir: obraz ifodasi: *Ey yor, sening jamoling yodi vayron bo'lgan xotiramda misli naqsh, buzug' ayvondagi quyoshsimon bezakdan qolgan iz kabi.*

Adabiyotshunos A. Hayitmetov ta'kidlaganidek, "garchi Sharq poeziyasi tarixida biz satirik, falsafiy, avtobiografik g'azallarni, tabiat, may haqidagi g'azallarni uchratsak ham, lekin g'azalning asosiy spesifik mavzusi — ishqdir. Buni faqat g'azal nazariyachilarining fikrigina emas, balki shu narsaning yuz yillik taraqqiyot tajribasi ham



ko'rsatib turadi" (10, 56). Shunga ko'ra, Alisher Navoiyning g'azallarida ham aksariyat hollarda ishqiy xarakterga ega bo'lganligi uchun *ey* obrazini *yor* deb tushunish xato bo'lmaydi.

Ma'lumki, har bir bayt tematik-g'oyaviy jihatdan g'azalning tarkibiy qismi sanalsa-da, sintaktik-semantik jihatdan anchayin mustaqil. "Ularning aksariyati g'azal strukturasi mustaqillikka ega bo'lib, boshqa baytlar bilan radif va qofiya orqaligina bog'lanib turadi. Ular alohida holda ham tugal ma'no bildiradi (10, 62). Shunga ko'ra, lirik qahramon munosabat o'rnatayotgan ikkinchi shaxs ma'nosi *ey* undalmasining bayt strukturasi o'rni, gapning umumiy mazmun mundariyasi: kesimlik shakllari va gap bo'laklarining umumiy mazmunidan, qolaversa, bayt mavzusiga ko'ra bir guruhga kiruvchi so'zlar mazmunidan, g'azalning bosh g'oyasi, mavzuidan ham anglashiladi.

Lirik qahramon murojaat obyektini tavsiflaydi. Agar lirik asarlarda murojaat shakli tavsifiy vazifani bajarsa, murojaatlar tavsifiy xarakterga ega bo'lsa, uning appelyativ vazifasi susayishi va hatto yo'qolishi ham mumkin. Bu tavsif-bayon usuli *ey* murojaat shakli ma'nosini oydinlashtiradi. Unda dialogizatsiya elementlari majud bo'lsa-da, tinglovchidan teskari munosabat — javob reaksiyasi kutilmaydi, ammo kuchli ekspressiya yuzaga keladi. "G'aroyib-us sig'ar" devonining 3-g'azali shunday boshlanadi:

*Ey, safhai ruxsoring azal xattidin insho,  
Debochai husnungda abad nuqtasi tug'ro* (G'S 3).

Olimlarning fikricha, mazkur g'azal mazmuniga ko'ra hamd g'azallar turkumiga kiradi, shuning uchun g'azal Allohning azaliy va adabiylikni vasf etuvchi misralar bilan boshlangan. Bayt boshidagi *ey* undovi zamirida "Alloh" so'zining ma'nosi yashiringan. Shuning uchun bu murakkab murojaatni Yaratuvchi — Haqqa murojaat sifatida tushunish o'rinli. *Safhai ruxsoring* birikmasi orqali ifodalangan bu sifat (*safhai ruxsor*) Allohga xosdir. Uni *yor* obraziga tenglashirish xatolikka olib keladi va shoirning she'riy baytdan ko'zlagan maqsadi amalga oshmaydi. Ya'ni: *Ey, Tangrim, sening yuzing sahifasida azaliylik xati bitilgan, husning kitobi muqaddimasida abadiylik muhri — unvoni mavjuddir* (4, 25–26).

Ma'lum bo'ladiki, *ey* undovi g'azallar matnida boshqa undov-murojaatlar kabi mustaqil — so'z-gaplar — vokativlar sifatida qo'llangan. U murojaat obyektini, ammo uning kimligi, kimga yoki nimaga qaratilganligi aniq ifodalanmagani, uning zamirida kim yoki nima yashiringanligi qayd etilmagani uchun tadqiqotchi Z.Akbarova bunday murojaatlarni "abstarkt" deya izohlaydi (2, 26–27). Bizningcha, *ey* undov so'zining ma'nosi har doim mavjud va uning ma'nosi shoir tomonidan bayt strukturasi elementlari mazmuniga singdiriladi. Shu ma'noda, uni "abstrakt" deyish o'rinli emas.

Odatda, og'zaki dialogik nutqda dialogizatsiya elementlari, ya'ni so'zlovchi-tinglovchi munosabatlarida murojaat birligi mavhum narsa yoki noaniq shaxslarga qaratilmaydi. U so'zlovchi uchun aniq,

lekin uning murojaati suhbatdoshlari uchun aniq bo'lmashligi mumkin (shuning uchun ba'zida so'zlovchi nutqi qaratilgan shaxsni nutq vaziyati bilan bog'liq ravishda aniqlashtiriladi: *ey bola* — faqat o'g'il bolani e'tiborini tortish uchun, *ey qizil ko'ylak* — faqat qizil qo'ylakdagi shaxsning e'tiborini tortish uchun qo'llanadi). Shoirning murojaat obyektini shoirning shuurida yaxlit holda shakllangan she'riy ifoda tarkibidagi sintaktik shakllarda ham aks etishi mumkin.

Quyidagi baytda qo'llangan *ey* undovining ma'nosi qaysi so'z bilan aloqadorligini aniqlash biroz murakkab. Shuning uchun uning zamirida qanday ma'no yashirin ekanganligini aniqlash uchun uning sharh va talqinlariga ham e'tibor qaratdik:

*Ey manga jonbaxsh gulbargi taringdin toza ruh,*  
*Toza-toza har biri shavqin solib (tur) ovoza ruh (G'S 106).*

Navoiy g'azallariga sharhlar bitayotgan O. Davlatovning izohlashicha, mazkur baytda "yorning "gulbargi tari" — labidan chiqayotgan so'zlardan oshiqning ruhi tozarib, poklanib olishi haqida so'z boradi. Bu so'zlar ilohiy kalom, payg'ambarimiz hadislari, pir — komil inson talqin qilgan hikmatlar, yoxud yorning so'zi bo'lishi mumkin" (4, 26). Demak, lirik qahramonning nutqi qaratilgan predmet — *ilohiy kalom, payg'ambarimiz hadislari, pir — komil inson talqin qilgan hikmatlar, yoxud yorning so'zi* bo'lishi ehtimolga yaqin. Uning asli esa shoirning shuurida "chizgilangan"ki, biz uni shoir shuuri doirasida anglashga harakat qilamiz, xolos.

Har bir bayt tematik-g'oyaviy jihatdan g'azal matnining tarkibiy qismi sanalsa ham, sintaktik-semantik jihatdan anchayin mustaqil (masalan, lirik chekinishlar). Shunga ko'ra, *ey* so'zining ma'nosini u qo'llangan jumlaning mazmun-mundariyasi: kimga yoki nimaga qaratilgani hamda predikatning predikativlik shakllari mazmunidan, qolaversa, avvalgi baytlarda qo'llangan tematik jihatdan bir guruhga kiruvchi so'zlarning mazmunidan poetik shaxs ma'nosini anglash mumkin bo'ladi.

*No'shi vasl, eykim, tilarsen, nishi hijron ko'rmayin,*  
*Chun emas bag'ring jarohatlig' ne marham topqasen (G'S 465).*

*Ey* undov so'zi g'azallar matnida undalmalar kabi chaqirish, e'tiborni tortish (kontakt o'rnatish, jonli nutq vaziyatini yaratish, jonli kommunikativ jarayonni ta'minlash) vazifalarini bajarish uchun qo'llangan. Ammo uning ma'nosini anglash, nutqning kimga yoki nimaga qaratilganini bayt/misradagi tavsifiy belgilardan, bayt tarkibidagi jumla mazmunidan kelib chiqib anglash adresat ixtiyoriga tashlab qo'yilsa-da, uni g'azal mazmuni doirasida talqin qilish zarur. Masalan, quyidagi baytda *ey* undovi orqali lirik qahramonning ichki adresatga maslahat qilishi va unga achinish hissi bayon qilingan.

*Jom davridin xalos o'lmoqni zinhor istama,*  
*Eyki, bo'lmoq istading anduhi davrondin xalos (G'S 274).*

E'tibor berilsa, *ey* so'zining ma'nosini ifodalovchi yashirin so'z — jumla predikatining argumenti sifatida kelgan ikkinchi shaxs kishilik olmoshini tiklash mumkin bo'ladi. Ammo u mazmunan bo'sh so'z bo'lsa ham, ayni nutq vaziyatida uning bir necha poetik ma'nolari mavjudligini qayd etish o'rinli. Uchinchi shaxsdagi predikatning ma'nosi esa axborot berishni qayd qilish vazifasini bajargan.

*Chu baxt axtari sa'd o'lmadi ne sud, eykim,  
Sipehr zijini hal qilg'ali rasad qilding (G'S 357).*

Bunday baytlar mazmunidan *ey* undov so'zining m'nosini tiklash mumkin. Buning uchun: 1) baytning umumiy mazmuniga e'tibor qaratish; 2) undalmalar aksariyat hollarda baytda tanosub san'atini hosil qilishini inobatga olib, uni baytda qo'llangan bir nasabli so'zlar mazmunidan chiqarib olish kerak. Baytda qo'llangan lug'aviy birliklarning ma'nosiga etibor qaratsak: *axtar (baxt axtari), sipehr ziji* — demak, tanosub san'atiga kiruvchi uchinchi so'z *ey* undovi zamiriga yashiringan: u — *falak* so'zi bo'lishi ehtimoldan yiroq emas.

Tadqiqotchi Z.Akbarova murojaat shakllarini ikki turga bo'lib o'rganadi: 1. Abstrakt murojaat shakli. 2. Konkret murojaat shakli kabi. Abstrakt murojaat shakli izohli undalmalar tarzida namoyon bo'ladi, ya'ni asosiy murojaat ifodalovchi so'z va uning izohini ifodalovchi so'zlardan tashkil topadi. Asosiy murojaat ifodalovchi so'z konkret tushuncha tashlamaydi, unga ishora qiladi. Masalan, *ey, eyki* kabi undovlar, *sen, siz* kabi olmoshlar konkret tushuncha tashlamaganligi tufayli, ular izohlovchi murojaat ifodalovchilarini olishlari mumkin. ...Abstrakt murojaat shaklida obyektini ko'rsatuvchi so'z o'zi tarkibida bo'lgan gap ichida konkretlashtirilishi, shuningdek, nutqiy vaziyati bilan bog'liq holda oydinlashishi ham mumkin. Har qanday holda ham abstrakt murojaat shakli konkretlashadi — obyektini ko'rsatuvchi izoh mavjud bo'ladi. Bunday izoh-davom yoyiq bo'lishida asosiy murojaat obyektini ko'rsatuvchi so'z haqiqatan ham abstrakt ekanligi yana ham oydinroq anglashiladi (2, 27).

Ta'kidlash joizki, hozirgi zamon o'zbek she'riyatida ham "abstrakt murojaat shakli konkretlashadi — obyektini ko'rsatuvchi izoh mavjud bo'ladi", ammo ularning qo'llanilishida kuchli farq kuzatiladi. Hozirgi o'zbek she'riyatida "abstrakt undovlarni konkretlashtiruvchi izoh qurilmalar"ning ikkinchi va uchinchi shaxsda qo'llanishi ko'proq kuzatilishi qayd qilinadi:

*Xayr, ey, bearmon kezgan qirlarim,  
Xayr, ey, yiroqqa qochgan so'qmoqlar,  
Xayr, ey, maskanim — tuqqan yerlarim,  
Xayr, ey, sahrolar, xayr, ey, tog'lar (2, 26).*



Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mazkur to'rtlikda *ey* undovi ma'nosini konkretlashtiruvchi izoh qurilmalarning birinchi va uchinchi shaxslarda qo'llanilishi, shaxsdan shaxsga ko'chishi ular o'rtasidagi kontrastlikni ta'minlagan.

Alisher Navoiy g'azallarida esa *ey* undovining ma'nosini konkretlashtirishga xizmat qiluvchi izoh qurilmalar murakkab nominativ qurilmalar sanaladi. Ular sintaktik jihatdan, aksariyat hollarda, gapga teng keladi. Masalan:

*Ey, mening jonim olib yaxshilig'ing,  
Beribon jon yana yaxshi qilig'ing* (G'S 343)

Ya'ni: *Ey yor, sening yaxshi qilig'ing menga qayta jon bergan bo'lsa, yaxshiliging mening jonimni olib(dur).*

She'riy nutqda shoir murojaat so'zlari orqali o'zining turli maqsadlarini ifodalaydi hamda shu xususiyati bilan she'riy ekspressiya ta'minlanadi.

*Ey* murojaat shakli ishtirok etgan jumla predikati mazmunidan uning grammatik shaxs ma'nosini tiklash mumkin:

*No'shi vasl, **eykim**, tilarsen, nishi hijron ko'rmayin,  
Chun emas bag'ring jarohatlig' ne marham topqasen* (G'S 465) .

Yoki:

*Jom davridin xalos o'lmoqni zinhor istama,  
**Eyki**, bo'lmoq istading anduhi davrondin xalos* (G'S 274).

E'tibor berilsa, *ey* so'zi mazmunan jumla predikatining argumenti, grammatik kesimga aloqador tobe bo'lak sifatida kegan II shaxs kishilik olmoshini tiklash mumkin bo'ladi.

*Chu baxt axtari sa'd o'lmadi ne sud, **eykim**,  
Sipehr zijini hal qilg'ali rasad qilding* (G'S 357).

Yoki:

***Eyki**, ko'rmaysen quruq shoxe bezalغان gul bila,  
Hajr toshidin sarosar jismi afgoring'a boq* (G'S 318) .

Ya'ni — *ey, sen tilarsen, ey sen bo'lmoq istading, ey, sen ... qasd qilding ... ko'rmaysen.*

Shuningdek, *ey* undovi jumla tarkibidagi ikkinchi shaxs kishilik olmoshining boshqa bo'laklarga grammatik jihatdan tobeligi — jumla predikati argumentining argumenti bo'lib kelgan o'rinlar ham kuzatiladi. Buni uning qaralmish tarkibidagi egalik shakli ma'nosidan ham anglash mumkin:

*Eyki, bo'lmish xil'ating zarbaft bori bilkim, ul  
Ma'no ahlin kuldururga za'farone besh emas* (G'S 223).

Ya'ni — *sening xil'ating... kabi.*

Tavsifiy xarakterdagi murojaatlar murakkab nom (propozitsiya)lar bilan ifodalanganda bog‘lamalarning, shaxs-son shakllarining, ya‘ni dialogizatsiya elementlarining qo‘llanmasiligi ham murakkab nomlarning ma‘nosini tushunishni yanada murakkablashtiradi. Buni quyidagi baytlar misolida ko‘rish, his qilish mumkin:

*Ey, uzoring ollida sharmanda mehri xovariy,  
Yo‘qsa nevchun yoshunur har kecha andoqkim pariy (G‘S 640).*

Agar mazkur baytlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirsak, uning ma‘nosini anglash bir oz osonlashadi: *Ey Alloh / Ey yor, sening uzoring (tasviring oldida) Sharq quyoshi sharmandadir.*

Fe‘lning yashirin kesimlik shakliga ega bo‘lgan ravishdosh shakllari ham ba‘zan bayt va uning misralari ma‘nosini yanglish anglashga, shu jumladan, *ey* murojaat shakli haqida noto‘g‘ri tasavvur paydo bo‘lishiga, ya‘ni uning kimga yoki nimaga qaratilganini — dialogizatsiyaga xos belgilarni noto‘g‘ri tushunishga olib keladi:

*Ey, hamd o‘lub mahol fasohat bilan sanga,  
Andoqki, qurb taqvovu toat bilan sanga (G‘S 4).*

*Ey Tangrim, eng chiroyli va purma‘no so‘zlar bilan ham hamdingni aytish mahol. Shuningdek, taqvo va toat-ibodat bilangina Senga qurbat — yaqinlik topish imkonsiz (4, 30).* Mazkur “sanga” radifli g‘azali o‘ziga xos tarzda shakllangan. G‘azallar matnida *-b* (*-ib*) ravishdosh shakllari bilan qo‘llangan propozitsiyalar predikatining kesimlik shakli o‘tgan zamon, aniqlik maylidagi uchinchi shaxsdan iborat: ularni (*-ib*)*durud/dur* shakli orqali anglash kerak (8, 32–72).

Bu turdagi nominallashtirish birliklarga nisbatan nutqiy to‘liqsiz gaplar sifatida ham qarash o‘rinli, chunki gapda bog‘lama yoki boshqa so‘zlar qisqarishi, ya‘ni ellipsiyaga uchrashi mumkin (11, 30).

*Ey* undovi ma‘nosi aniq bo‘lmagan so‘z, baytdagi unga ishora qiluvchi *sen* olmoshi ham ichi bo‘sh so‘z. Har ikkalasining ma‘nosi aniq emas, ammo *ey* undalmasi — “*san*” olmoshiga teng. Shuning uchun ular ayni shu o‘rinda birlashadi. Ya‘ni “*san*” olmoshining ma‘nosi *ey* undovi orqali reallashadi. Bunday murojaatlarda dialogizatsiya o‘ta murakkab tus oladi va kuchli ekspressiya uyg‘otadi. Bayt/misra tarkibidagi sintaktik shakllar mazmuni orqali anglanadigan tavsifiy xususiyatlar shoirning sub‘yektiv munosabatidan iborat.

Shuningdek, misra strukturasiidagi mustaqil gapning sintaktik-semantik xususiyatlarini o‘rganish davomida g‘azallar matnida tez-tez uchraydigan, yaxlit sintaktik qurilma sifatida shakllangan bayt/misralar e‘tiborni tortadi. Bu o‘zida murojaat ma‘nosini aks ettirgan qurilmalardir. Bunday qurilmalar ham ko‘proq g‘azallarining

birinchi bayti — husni matla’da uchraydi. Ularning asosan ikki turini farqlash mumkin:

To’liq baytga yoki uning tarkibidagi bir misraga teng keluvchi deskriptiv murojaat shakllari. Bunday deskriptiv qurilmalar sodda gap ko’rinishiga ega bo’lib, yaxlit holda murojaat ma’nosini ifodalaydi. Bu turdagi murojaat shakllari, aksariyat hollarda, “ey” undov so’zi bilan qo’llangan elleptik jumalardir, masalan:

*Ey, meni sargashtadin gah forig’u gohi malul.*

*Qahring ul, lutfung bu, yorabkim, ne odatdur sanga (G’S 17).*

Ko’rinadiki, bayt tarkibidagi misralar sintaktik-semantik jihatdan yaxlit qurilmalardan iborat: ular baytga qo’yiladigan talablarga to’liq mufoviq keladi va ularning har biri mustaqil nominallashgan gaplardan iborat. Birinchi misra yaxlit holda murojaatlar qurilmasi sanalib, u sodda gapga transformatsiyalangan. Mazkur murojaat shaklida gapga xos hukm, predikavlik to’liq mavjud: Mazkur jumla kesimini *forig’ aylagan, malul aylagan*: Ya’ni — *ey meni sargashtalikdan goh forig’, goh malul (g’amgin) aylagan*. (... yorning mehri va qahriga uchragan oshiqning murojaati (4, 109-113) ) tarzida murojaat ma’nosida anglash lozim bo’ladi.

Mazkur baytning birinchi misrasi ham grammatik jihatdan gap sifatida to’liq shakllanmagan. Gapda *meni* vositasiz to’ldiruvchining mavjudligi grammatik kesimning (mazkur holatda ot kesim) mavjudligiga ishora qilmoqda. Lekin, gapdagi qo’shma fe’l (ot+fe’l)ning ikkichi qismi she’riy talabga ko’ra qo’llanmagan, uning ma’nosi qo’shma fe’lning ot qismi orqali anglashiladi. Demak, bu tarzda shakllangan gaplarga shoirning favqulodda (spontan) kayfiyati bois yuzaga kelgan murojaat mazmunli jumalar sifatida qarash o’rinli. Quyidagi baytlarda esa yuqoridagi baytning qurilishidan sal farq qiladi.

G’azallar matnida qo’llangan *ey* kabi undovlar va ularning ma’nosiga oydinlik kirituvchilar, bu — nominallashgan elleptik qurilmalardir:

*Ey, dudog’ing sharbatida obi hayvon lazzati.*

*Lazzate bo’lg’ay, nasibim bo’lsa la’ling sharbati (G’S 594).*

Mazkur baytning birinchi misrasida ham mustaqil propozitsiya ifodalangan bo’lib, u gapga teng, ya’ni murojaat shaklining gapga xos belgilari yashirin tarzda qo’llangan. Mazkur murojaat mazmunidagi qurilmani *Ey, sening dudog’ing sharbatida obi hayvon lazzati bordir, balki u shunday bir lazzatdirki, la’ling sharbati nasibim bo’lsa,* tarzida anglash lozim bo’ladi.

*Ey, alifdek qomating mayli buzulg’an jon aro*

*Ganji husnung javhari bu xotiri vayron aro (G’S 18).*

Anglashiladiki, mazkur bayt misralari mazmunida *yor* tasviri va tavsifi berilgan. Ikki misra bir poetik obrazni izohlashga qaratilgan ikki nominatsiyadan iborat.

G‘azallar matnida qo‘llangan bunday nominativ qurilmalarni murojaat shakli sifatida anglash, ularga yaxlit holda murojaat shakli sifatida qarash to‘g‘ri emas. Ammo *ey* undovida poetik obrazning (*yorning*) yashirin kelishi va uning ma‘nosini bayt sintaktik strukturasi mazmuni orqali to‘ldirilishi g‘azal janriga xos zaruriy va an‘anaviy usul sanaladi. Bu kabi sintaktik birliklar muayyan jihatlari bilan tasviriy ifodaga o‘xshab ketadi. Zero, Ollohni sifatleri (go‘zal ismlari) bilan zikr qilish, uni eslash va unga murojaat qilish klassik she‘riyatning asosiy mezonlari sanalgan (9, 447).

#### **Xulosa.**

– Alisher Navoiy lirikasida *ey* undovi murojaat qilish ma‘nosida faol qo‘llangan va shoir va she‘rxon o‘rtasidagi kommunikativ jarayonni yuzaga keltirishga xizmat qilgan.

– *Ey* undovi murojaat obyektiga ishora qilish, nutq referentini belgilash hamda kuchli ekspressiyani ta‘minlashdan iborat.

– *Ey* undovi mazmunan bo‘sh, ammo uning mazmunini bayt/misra struktura elementlari (tavsifiy xarakterdagi jumlar) murojaat obyektini sifatida to‘ldirishga xizmat qiladi.

– *Ey* undoviga xos xususiyatlarni bilish g‘azal mazmunini tushunishda muhim o‘rin tutadi.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Bobokalonov R. O‘zbek tilida gapsintaksisi va so‘z gaplarning sistem-struktur talqini. — Toshkent: Fan, 2006. — 123 b.
2. Akbarova Z.A. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи. Филол.ф.н...дисс. — Тошкент, 2007. — 135 б.
3. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Фаройиб ус-сиғар. 20 томлик. 3-том. — Тошкент, 1988. — 616 б.
4. Давлатов О. Маънолар хазинаси. 1-жилд. — Тошкент: Tamaddun, 2021. — 331 б.
5. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. — Тошкент, 1965. — 136 б.
6. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. — Тошкент, 1983. — 168 б.
7. Ковтунова И. Поэтический синтаксис. — М.: Наука. 1986. — 61 с.
8. Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида эргаштирувчи боғловчили гапларнинг синтактик-семантик хусусиятлари. Филол.ф.номз. ...дисс. — Тошкент, 2008. — 145 б.
9. Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. — Тошкент: Akademnashr, 2020. — 447 б.
10. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. — Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960. — 150 б.

#### **References**

1. Bobokalonov R. *Uzbek tilida gapsintaksisi va suz gaplarning sistem-struktur talqini* (Sentence Syntax and System-Structural

- Interpretation of Speech in the Uzbek Language), Tashkent, 2006, 123 p.
2. Akbarova Z.A. *Uzbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi* (Addresses in the Uzbek Language and Their Linguistic Research), PhD thesis in Philology, Tashkent, 2007, 135 p.
  3. Alisher Navoi. *Xazoyin ul-maoniy. Gharoyib us-sighar* (Khazayin ul-Maani. Gharoyib us-sighar), A treasure of meanings, Volume 3, Tashkent, 1988, 616 p.
  4. Davlatov O. *Ma'nolar xazinasi* (The Treasure of Meanings), A treasure of meanings, Volume 1, Tashkent: Tamaddun, 2021, 331 p.
  5. Iskhakov Y. *Alisher Navoiyning ilk lirikasi* (Alisher Navoi's First Lyric), Tashkent, 1965, 136 p.
  6. Iskhakov Y. *Navoiy poetikasi* (Poetics of Navoi), Tashkent, 1983, 168 p.
  7. Kovtunova I. *Poeticheskiy sintaksis* (Poetic Syntax), Moscow, 1986, 61 p.
  8. Rakhmatov M. *Alisher Navoiyning nasriy asarlarida ergashtiruvchi boghlovchili gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari* (Syntactical Features of Sentences with Subordinative Conjunctions in Prosaic Compositions of Alisher Navoi), PhD thesis in Philology, Tashkent, 2008, 145 b.
  9. Sadikov Q. *Eski uzbek yozma adabiy tili* (Old Uzbek Written Literary Language), Tashkent: Academ publishing house, 2020, 592 p.
  10. Khaitmetov A. *Navoiy lirikasi* (Navoi Lyrics), Tashkent: UzFA publishing house, 1960, 150 p.